

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING TRANSFORMATSIYASI VA REPETITORLIK FAOLIYATI: NAVOIY VILOYATI MISOLIDA

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
o'qituvchisi Xalilov Baxodir Shirinboyevich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyatida mustaqillikdan keyingi yillarda maktabdan tashqari ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, nodavlat qo'shimcha ta'lim markazlarining vujudga kelishi, repetitorlik faoliyatining ommalashuvi, ularning ta'lim sifati va abituriyentlar tayyorgarligidagi roli chuqur o'rganiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat ta'lim markazi, repetitorlik, maktabdan tashqari ta'lim, abituriyent, test tizimi, ta'lim sifati, Xatirchi tajribasi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития системы внеурочного образования в Навоийской области после обретения независимости. Особое внимание уделено становлению негосударственных образовательных центров, популяризации репетиторской деятельности, их роли в повышении качества образования и подготовке абитуриентов.

Ключевые слова: негосударственный образовательный центр, репетиторство, внеурочное образование, абитуриент, тестовая система, качество образования, опыт Хатырчи.

Annotation. This article analyzes the formation and development of the out-of-school education system in the Navoi region after Uzbekistan's independence. It focuses on the emergence of private supplementary education centers and the growing popularity of tutoring services, highlighting their role in improving educational quality and preparing students for university entrance exams.

Keywords: private education center, tutoring, out-of-school education, applicant, testing system, education quality, Navoi region, Khatirchi experience

Mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiy viloyati ma'muriy birlik sifatida qayta tashkil etilganidan so'ng hududda yoshlar ta'limiga oid muassasalarni tashkil etish

ishlari ham boshlab yuborildi. Jumladan, maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992- yil 15- martdagi Farmoniga¹ asosan viloyatda 1983-yilda tashkil etilgan Toshkent pedagogika institutining Navoiy filiali negizida Navoiy davlat pedagogika instituti hamda Toshkent davlat texnika institutining Navoiy filiali negizida Navoiy davlat konchilik instituti tashkil etildi*.

Shundan so‘ng viloyatning maktablarni bitiruvchi yoshlari asosan Navoiy shahridagi ushbu oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom etrishni afzal ko‘rdilar. Chunki birinchidan, yangi tashkil etilgan oliy o‘quv yurti eng avvalo hududni malakali kadrlar bilan ta’minlashga qaratilgan edi. Xususan, yangi tashkil etilgan viloyat maktablarida malakali o‘qituvchi-pedagoglar yetishmas, shuningdek, iqtisodiy yo‘nalishi asosan sanoatga ixtisoslashgan viloyatdagi korxonalariga ham konchilik, metallurgiya, injiner-muhandislik va boshqa sohalardagi mutaxassislariga ehtiyoj va zaruriyat mavjud edi. Ikkinchidan, viloyatning bitiruvchi o‘quvchilari uchun hudud yaqinligi va qulayligi imkoniyatlari mavjud edi. Navoiy viloyatida oliy ta’lim muassasalari tashkil etilgunga qadar viloyat yoshlari asosan Samarqand, Buxoro kabi qo‘shni viloyatlar hamda Qashqardaryo, Toshkent kabi hududlarda oliy ta’lim olishgan. Yangi oliy ta’lim muassasalarining Navoiyda tashkil etilishi shu jihatdan hudud yoshlari uchun yana bir imkoniyat yaratdi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalariga kirishda test tizimi 1993-1994 o‘quv yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etila boshladi. Oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarining test tizimi O‘zbekistonning boshqa hududlari singari Navoiy viloyati maktab bitiruvchilari uchun ham yangi tajriba edi. Shu sababli, sekin-asta maktab bitiruvchilarining imtihonlarga tayyorgarlik jarayonlarida transformatsion o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Ya’ni kirish imtihonlaridagi insho yozish, og‘zaki va yozma javob berish kabi jarayonlar to‘liq test tizimiga o‘ta boshladi. Bu maktab bitiruvchilari uchun o‘ziga xos mas’uliyatni ham talab qila boshladi. Shu sababli ham viloyatda maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlariga tayyorgarlikda ham o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Dastlab viloyatning bitiruvchi yoshlari malakali o‘qituvchilar ko‘magida maktabdan tashqari ravishda imtihonlarga

1

Кейинчалик 2022 йилда Навоий давлат кончилиқ институти негизидан Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети, 2024 йилда Навоий давлат педагогика институти негизидан Навоий давлат университети ташкил этилди.

tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Sekin-asta o‘quvchilarga maktabdan tashqari qo‘shimcha bilimlar berish va mustahkamlash repititorlik asosida pullik xizmat ko‘rsatish shakliga aylanib bordi.

Mustaqillikning dastlabki yillari 1991-2000-yillarda repititorlikning legallashuvi va kengayishi hodisasi kuzatila boshladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xususiy ta’lim muassasalarining paydo bo‘lishi repititorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratdi. Oliy ta’limga kirish imtihonlarining murakkablashuvi, test tizimining joriy etilishi repititorlikka bo‘lgan talabni yanada oshirdi. Aholining iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishi, ta’limga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi repititorlik xizmatlariga bo‘lgan xarajatlarni qoplash imkonini berdi.

Repititorlik xizmatlari asosan maktabdan tashqari ta’limning noan’anaviy shakliga aylanib, ommalashib bordi. Shunga ko‘ra repititorlik individual repititorlik, guruhiy repititorlik (kichik guruhlarda), xususiy o‘quv markazlarining tashkil etilishi bilan yanada rivojlanib bordi. 2000-yillarga qadar Navoiy viloyatida maktabdan tashqari ravishda o‘quvchilarga qo‘shimcha ta’lim berish – repititorlik faoliyati oshkora tus oldi, repititorlar soni keskin oshdi, narxlar shakllandi va xizmatlar sifati bo‘yicha raqobat paydo bo‘ldi. Bu asosan Navoiy shahrida ommalashib bordi².

Navoiy viloyatida 2001-2016-yillarda repititorlikning rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Chunki bu davrda oliy ta’limga kirishda test sinovlarining saqlanib qolinishi repititorlikka bo‘lgan talabni barqaror ushlab turdi. Viloyatning ayrim maktablarda ta’lim sifatining pastligi, o‘quvchilarning yetarli bilim ololmasligi repititorlik xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Repititorlik faoliyatidan yuqori daromad olish imkoniyati ko‘plab malakali o‘qituvchilarni jalb qildi³.

Navoiy viloyatida repititorlik markazlarining soni va sifati oshdi, ular zamonaviy o‘quv metodikalari va texnologiyalarini qo‘llay boshladi. Shuningdek, viloyatda masofaviy repititorlik (onlayn darslar) shakllana boshladi. Navoiy shahridan tashqari, Xatirchi⁴, Karmana tumanlari, Zarafshon shaharlarida maktabdan tashqari ravishda o‘quvchilarni kirish imtihonlariga tayyorlash markazlari paydo bo‘ldi. Ixtisoslashgan

² Navoiy shahrida 2000-2016 yillarida repititorlik faoliyati bilan shugullangan o‘qituvchi-pedagog P. Xaitiёv bilan suxbat. 2023 yil 26 noyabr.

³ Tadqiqotchining 2002-2016 yillaridagi empirik kuzatishlari natijalari asosida olingan xulosalar.

⁴ Tadqiqotchining 2012-2020 yillarida Navoiy viloyati Xatirchi tumanida shu yunalishda olib borilgan faoliyati kuzatishi xulosalari.

repetitorlik markazlari paydo bo'ldi, masalan, faqat matematika yoki chet tillari bo'yicha nodavlat qo'shimcha ta'lim beradigan o'quv markazlari shakllandi.

O'zbekistonning boshqa hududlari singari Navoiy viloyatida ham 2017- yildan keyin maktabdan tashqari asosda o'quvchilarga bilim berishning repetitorlik shaklida yangi tendensiyalar va muammolar yuzaga keldi.

Chunki ta'lim sohasidagi islohotlar, maktablarda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar repetitorlikka bo'lgan talabni qisman kamaytirdi. Shuningdek, oliy ta'limga kirish imtihonlarining soddalashtirilishi, fanlar sonining qisqartirilishi ham repetitorlikka bo'lgan talabga ta'sir qildi. Shuningdek, ta'kidlash kerakki, nafaqat Navoiy viloyatida balki, butun Respublikada repetitorlik xizmatlariga qo'yilgan davlat talablari mavjud emas. Ularning o'quv metodlari, dars jarayonlarini tashkil etishga, natijalari va boshqalarga qo'yilgan talabalar ishlab chiqilmagan. Maktabdan tashqari ta'limda repetitorlikning maktablarda ta'lim sifatiga e'tiborning kamayishi, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishining susayishi kabi ta'lim tizimiga salbiy ta'sirini ham ta'kidlash kerak. Biroq Navoiy viloyatida ham maktabdan tashqari ravishda maktab bitiruvchilarining repetitorlik asosda kirish imtihonlariga tayyorgarligi ularning oliy ta'lim muassasalariga kirish natijalarining yuqori bo'lishiga olib keldi. Navoiy viloyati bu borada Respublikaning Buxoro, Toshkent, Samarqand singari hududlari qatorida yetakchi bo'ldi. Bunga Navoiy, Zarafshon shaharlari, Xatirchi, Karmana tumanlaridagi qo'shimcha nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati katta ta'sir ko'rsatdi.

Navoiy viloyatida nodavlat qo'shimcha ta'lim markazlari va repetitorlik maktablari yildan yilga ko'payib bormoqda. Bunday markazlar aholining ta'limga bo'lgan talabini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu markazlar asosan quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

- Oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorlash (matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, chet tillari va boshqa fanlar bo'yicha)
- Chet tillarini o'rgatish (ingliz, rus, koreys, xitoy, nemis va boshqa tillar)
- Kompyuter savodxonligi va IT-texnologiyalari
- Bolalarni maktabga tayyorlash
- Tez o'qish, xotira mashqlari va boshqa intellektual rivojlantirish kurslari
- San'at va ijodiyot (rasm chizish, musiqa, raqs, teatr va boshqalar)

Nodavlat ta'lim markazlari asosan Navoiy shahri va Zarafshon shahrida hamda ularning filiallari Qiziltepa, Karmana kabi yirik tuman markazlarida ham joylashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 13-oktabr kuni Navoiy viloyati saylovchilari bilan uchrashuvida⁵ Xatirchi tumani Tamabahrin mahallasidagi maktab, o‘quv markazi va ularning bitiruvchilari haqida “Ma’lumki, Navoiy viloyati katta ilmiy, texnik va intellektual salohiyatga ega. Sizlar yaxshi bilasiz, Xatirchi tumanida mashhur Tamabahrin mahallasi bor. Mahallada joylashgan 22-maktab viloyatning eng ilg‘or ta’lim maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu yil Navoiy viloyati maktab bitiruvchilari oliygohlarga kirish bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinni egallashida ushbu jamoaning alohida hissasi bor”, deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, maktab o‘quvchilarini maktabdan tashqari ta’lim asosida hamda abituriyatlarni oliy ta’lim muassasalari kirish imtihonlariga tayyorlashda Xatirchi tumanidagi mazkur maktab Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi maktablardan keyingi asosiy ikkinchi o‘rinni egalladi. Xuddi Qorako‘l tumani kabi Xatirchi tumanidagi ushbu maktablarga ham butun Respublikadan o‘quvchilar kelib ta’lim ola boshladilar⁶.

Navoiy viloyatining Xatirchi tumani Tamabahrin mahallasidagi “Abituriyentlar tayyorlash maktabi” 1996 -yillardan boshlab qishloqdagi 22- va 44-umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari Beknazarov Sadulla (kimyo), Shamsiyev Bahodir (ona tili va adabiyot) Egamberdiyev Toshmamat (nemis tili) Juliyev Muhammad (Tarix) fani o‘qituvchilari tomonidan asos solingan. Ular ushbu maktabning iqtidorli o‘quvchilarini maktab binosi va o‘z uylarida maktabdan tashqari ravishda o‘qitishgan. Chunki 1990-2000- yillarda yaqin atrofdagi maktablar bitiruvchilaridan faqatgina 1-2 nafari oliy ta’lim muassasalariga kira olar. Matkablarining aksariyat bitiruvchilari esa talaba bo‘la olmas edi. O‘qitish sifati past, natijalar ham shunga yarasha edi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni maktabdan tashqari ravishda qo‘shimcha o‘qitish va ta’lim berishga katta ehtiyoj mavjud edi⁷.

Maktab bitiruvchilari hamda abituriyentlar har yili avgust oyidan boshlab, og‘zaki va test saralashlari asosida tanlanib, sentyabr oyidan darslar faol boshlangan. An’anaviy ravishda abituriyentlar birinchi navbatda har bir fan bo‘yicha boshlang‘ich mavzularni

⁵ Жонибеков З, Бўриев А.Навоий вилояти – юртимиз жавохири, саноат драйвери бўлиб қолаверади. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 14 октябрь.

⁶ Тадқиқотчининг Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи Абитуриентлар мактабидаги 2010-2020 йиллардаги фаолияти хулосалари.

⁷ Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи 22-мактаб собиқ директори, курс асосчиларидан Саъдулла Бекназаров билан суҳбат. 2023 йил сентябрь.

o‘rganishib, osondan murakkab tomonga qarab borishgan⁸. O‘qitiladigan fanlar maktab ta‘lim tizimi asosida dars javdali asosida olib borilishi hamda o‘zlashtirishning reyting tizimi yo‘lga qo‘yilishi, ularning o‘zlashtirish darajasini baholash imkonini yaratgan.

Abituriyentlar ko‘rsatgan natijalari ularning ta‘lim uchun to‘lanadigan to‘lovlariga ta‘sir ko‘rsatgan. Ya‘ni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilarning ayrimlari oylik to‘lovdan ozod qilingan bo‘lsa, ayrimlariga to‘lovlar arzonlashtirilgan. O‘zlashtirishi past o‘quvchilarga esa to‘lovlar oshirilgan. Bu o‘quvchilarga o‘ziga xos motivatsiya va stimul bergan⁹.

Darslar asosan, o‘qituvchilarning uylarida o‘tiladi. Bunga sabab bir vaqtlar hududdagi maktabda boshlangan repetitorlik faoliyati maktabda davom ettirilishiga qarshilik bo‘lgan. Dars o‘tish uchun uylariga ko‘chgan o‘qituvchilar shu-shu uyda dars o‘tish an‘anasini saqlab qolgan¹⁰.

Dastlabki 1996-2010- yilgacha bo‘lgan davrda abituriyentlar hamma fanlar kesimida taxminan 500-600 atrofida kelgan. 2010-2023-yilgacha 1500-3000 atrofida kelgan. Abituriyentlar orasida 2010 -2022-yilgacha maktab o‘quvchilari tayorlanish foizi 75-80% 2023- hozirgacha 90-98% maktab o‘quvchilari¹¹ (yiqilgan abituriyent kam sababi xususiy ta‘lim qamrovi).

2024-yildan boshlab Xorijiy til Ingliz tilidan xalqaro (IELTS, TOEFL) Milliy sertifikat (CEFER)larga talab oshganligi uchun abituriyentlar ham shu fanlarga ko‘paygan. Shuningdek, maktab biruvchilari va abituriyentlar asosan Matematika Biologiya, Kimyo fanlariga qiziqish bildirmoqda. Hozirda abituriyentlar 10-sinf dan o‘qishga kirishdagi asosiy 2 ta fanidan Milliy sertifikatlarni olib, 3 ta Majburiy fanlariga urg‘u beryapdi. 5 ta fandan tayyorlanish kerak bo‘ladigan bo‘lsa, abituriyent Milliy sertifikatni o‘zining iqtidoriga qarab 6 oyda yoki 1 yilda yoki undan ko‘proq vaqt tayyorlanib sertifikatni qo‘lga kiritib bo‘lguncha unga urg‘u beradi To‘plagan balidan kelib chiqib qolgan fanlarga harakat qiladi.

⁸ Тадқиқотчининг Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи Абитуриентлар мактаби математика фани ўқитувчиси Юсуф Изомиддинов билан суҳбати. 2023 йил августъ.

⁹ Тадқиқотчининг Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи Абитуриентлар мактаби она тили фани ўқитувчиси Анвар Бахранов билан суҳбати. 2023 йил августъ.

¹⁰ Ғайбуллаева З. Ўзбекча репетиторлик мактаби — 25 йиллик тарихга эга абитуриентлар маҳалласидан репортаж // <https://kun.uz/kr/07543075>

¹¹ Тадқиқотчининг Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи Абитуриентлар мактабидаги 2010-2020 йиллардаги фаолияти хулосалари.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyatida mustaqillikdan so‘ng maktabdan tashqari ta‘lim tizimi va repetitorlik faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib, hududda ta‘lim sifati va oliy o‘quv yurtlariga tayyorlov jarayonining muhim omiliga aylandi. Dastlab norasmiy shaklda boshlangan repetitorlik faoliyati bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanib, nodavlat qo‘shimcha ta‘lim markazlari ko‘rinishida keng quloch yozdi. Bu jarayon ta‘limga bo‘lgan talab, test tizimining joriy etilishi va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy shaхrida 2000-2016 йилларда репититорлик фаолияти билан шуғуланган ўқитувчи-педагог Р.Хайтиов билан суҳбат. 2023 йил 26 ноябрь.
2. Жонибеков З, Бўриев А. Navoiy viloyati – юртимиз жавоҳири, саноат драйвери бўлиб қолаверади. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 14 октябрь.
3. Хатирчи тумани Тамабахрин маҳалласи 22-мактаб собиқ директори, курс асосчиларидан Саъдулла Бекназаров билан суҳбат. 2023 йил сентябрь.
4. Гайбуллаева З. Ўзбекча репититорлик мактаби — 25 йиллик тарихга эга абитуриентлар маҳалласидан репортаж // <https://kun.uz/kr/07543075>

**Research Science and
Innovation House**